

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

5-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 5 (5) - 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Qurbonova Marg'uba</i> O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI .....	13-15
<i>Polvanov Azim Kuchkarovich</i> AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI .....	16-21
<i>Esnazarova Zulfiya Baltashovna</i> QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924).....	22-27
<i>Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar).....	28-36
<i>Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid</i> IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARINING ISHTIROKI .....	37-43
<i>Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li</i> XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI .....	44-47
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE).....	48-52
<i>Esanova Nilufar</i> 1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOIY MAMLAKATLARI MISOLIDA).....	53-56
<i>Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li</i> O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR .....	57-64
<i>Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li</i> HUDUDIIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA .....	65-70
<i>Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li</i> XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI .....	71-74
<i>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIIY AHAMIYATI .....	75-80
<i>O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li</i> ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI .....	81-88

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov*

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:

EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH ..... 89-98

*Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi*

MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:

QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? ..... 99-104

*Xakkulov Akbar Uralovich*

MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI ..... 105-111

*Amonov Mehridin Oromiddinovich*

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:

AVTOKRATIK RAHBARLAR ..... 112-117

*Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna*

HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI

BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI ..... 118-125

*Yangiboyev Rustam Berdiyarovich*

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI ..... 126-131

*Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich*

DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN

FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK

XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI ..... 132-143

*Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu*

DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING

NAZARIY ASOSLARI ..... 144-150

*Umronov Eldorbek Sodirovich*

HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING

EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI ..... 151-159

*Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz*

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY

IN UZBEKISTAN ..... 160-172

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Ahmedova Dilrabo*

YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY

JARAYONLARNING TA'SIRI ..... 173-177

*Raxmatova Xolidaxon Xolikovna*

NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING

FALSAFIY TAHLILI ..... 178-184

*Kurbonaliyev Ural Xatamovich*

ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH

DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI ..... 185-189

*Soipova Mavjuda Karimjanovna*

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI ..... 190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI .....	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI .....	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI .....	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOYIY AHAMIYATI .....	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i> IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOYIY FALSAFIY TALQINLAR .....	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i> КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА .....	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY- FALSAFIY OMILLARI .....	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOYIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI .....	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI .....	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i> TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI .....	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i> YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI .....	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i> SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI .....	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI .....	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i> YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI .....	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR .....	265-271

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i> СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК .....	272-280
---	---------

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i> PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS .....	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS .....	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i> ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR .....	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i> ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI .....	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i> MARGARET DRABBLNING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH .....	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS .....	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI .....	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i> СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i> ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION .....	332-337
<i>Nazimova Himmatoy</i> "DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI TAHLILI .....	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i> SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI .....	343-348
<i>Azizova Feruza Rejavalievna</i> TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI .....	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i> XITOIY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI .....	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i> SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION .....	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i> DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA .....	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i> BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI .....	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i> TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	373-376

*Mamadiyeva Hilola*

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI ..... 377-384

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Abdullayeva Nodira Odil qizi*

OILAVIY (MAISHIY ) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI ..... 385-393

*Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li*

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR ..... 394-399

*Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li*

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING

PREDMETI VA USULLARI ..... 400-407

*Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора*

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ ..... 408-413

*Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li*

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO

MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR ..... 414-420

*Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi*

SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):

MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI ..... 421-432

*Burxonov Shahzod Burxon o'g'li*

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI

TARTIBGA SOLISH ..... 433-438

*Avezov Umidjon Toshpulatovich*

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH

BOSQICHLARI TAHLILI ..... 439-446

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Максудов Улугбек Курбанович*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ

СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ

В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ..... 447-453

*Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza*

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI ..... 454-458

*Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich*

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

*Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera*

TALABALARDA TAHLILY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK

ASOSLARI ..... 464-468

*Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich*

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS

FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI .....	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i> TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI .....	491-495
<i>Abdullaeva Dilдора Улугбековна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ .....	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i> STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR .....	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i> SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY .....	509-514
<i>Avazova Munisa</i> TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI .....	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali</i> SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH .....	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI .....	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI .....	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i> KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI( PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI .....	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI .....	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i> KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI .....	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i> BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI .....	563-568

**Received:** 15 April 2025

**Accepted:** 1 May 2025

**Published:** 10 May 2025

*Article / Original Paper*

## **IMPLEMENTATION OF STATE YOUTH POLICY BASED ON A TERRITORIAL APPROACH: THE CASE OF KASHKADARYA REGION**

**Khudoyberdiyev Axrorboy Nabi ogli**

PhD student at Shakhrisabz State Pedagogical Institute

**Abstract.** This article examines the importance of a territorial approach in implementing state youth policy in the Kashkadarya region. It analyzes legal frameworks, adopted programs, and their practical outcomes aimed at supporting youth. The study highlights regional measures to promote youth employment, entrepreneurship, and social engagement. The necessity of a territorial approach in youth work is substantiated, taking into account the demographic and socio-economic characteristics of the region.

**Keywords:** state youth policy, territorial approach, Kashkadarya region, youth employment, youth entrepreneurship, state programs, practical outcomes.

## **HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA**

**Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li**

Shahrissabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: [axrorxudoyberdiyev19@gmail.com](mailto:axrorxudoyberdiyev19@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda hududiy yondashuvning ahamiyati tahlil etiladi. Yoshlarga oid huquqiy asoslar, qabul qilingan dasturlar va ularning amaliy natijalari chuqur o'rganiladi. Hududda yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, bandlikni ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar misolida davlat siyosatining samara va natijalari yoritiladi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yoshlar bilan ishlashda hududiy yondashuv zarurligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** yoshlarga oid davlat siyosati, hududiy yondashuv, Qashqadaryo viloyati, yoshlar bandligi, yoshlar tadbirkorligi, davlat dasturlari, amaliy natijalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N11>

**Kirish.** So'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida yoshlar siyosati davlat va jamiyat hayotining markaziy yo'nalishiga aylanib bormoqda. Xususan, yoshlarning mamlakat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga faol jalb etilishi, ularning manfaatlarini himoya qilish va imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. O'zbekiston ham o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lida yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga munosib sharoitlar yaratish siyosatini izchil amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" [1] — deb ta'kidlagan edi.

Qashqadaryo viloyatida ham yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Bunda Yoshlar siyosatining dastlabki huquqiy asosi sifatida 1991 -yil 20 noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun [2] muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'z vaqtida yoshlarning huquq va erkinliklarini kafolatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qildi. Ushbu qonunning 2016- yil 14 -sentyabrda yangi tahrirda qabul qilinishi [3] yoshlar siyosatini zamon talablariga mos holda takomillashtirish uchun mustahkam huquqiy baza yaratdi.

Shuningdek, 2020- yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [4] va ilgari ishlab chiqilgan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" [5] mamlakatimizda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Bu hujjatlar orqali barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish maqsad qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan viloyatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida yoshlar siyosati sohasida tub o'zgarishlar ro'y berdi. "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini rivojlantirish uchun keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [6].

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarda mustaqil faoliyat, yangi davrga mos keladigan ijtimoiy-ma'naviy xislatlarni, xususan, globallashuv sharoitida muhim ahamiyat kasb etadigan milliy o'zlikni anglashning nazariy-metodologik va amaliy asosini tashkil qiladi. Uning shu yo'nalishdagi mohiyati siyosatshunoslik fanlari doktori S.A. Jo'rayevning yoshlar davlat siyosatining ta'rifida ochib berilgan: «Yoshlar siyosati bu jismonan va ruhan sog'lom milliy-etnik genofondni saqlash, qayta ishlab chiqarish, rivojlantirishga, intellektuallashtirish, ijtimoiylashtirish darajasini yaxshilash hisobiga uning salohiyati va mobilligini oshirishga, har bir yoshni faol jamiyat a'zosi, uyg'un rivojlangan shaxs sifatida yetishib chiqish jarayonlarini rag'batlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'naviy shart-sharoitlar majmuini yaratish sari maqsadli yo'nalish olgan davlat va jamiyat, partiyalar va harakatlarning alohida siyosiy yo'lidir» [7].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Davlat yoshlar siyosatini amalga oshirishga doir ilmiy va normativ-huquqiy manbalarni tahlil qilish ushbu sohaga oid asosiy tamoyillar, mexanizmlar va yondashuvlarni chuqur tushunishga imkon beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yoshlarga oid qarorlari va "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi qonun mazkur sohada huquqiy asoslarni belgilab bergan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatidagi yoshlar bandligi, tadbirkorligi va ijtimoiy faolligi masalalari bo'yicha mahalliy matbuot, statistik ma'lumotlar, viloyat hokimligi hisobotlari va Yoshlar ishlari agentligining viloyat bo'limi materiallari tahlil qilinadi.

Maqola tadqiqotining metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, tahlil va sintez, statistik ma'lumotlar tahlili, taqqoslash va empirik kuzatuv metodlari qo'llanildi. Tadqiqot hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda davlat siyosatining yoshlar qatlamiga ta'sirini aniqlashga yo'naltirilgan.

**Natijalar.** Mamlakatimizda yoshlar siyosatining samaradorligini baholashda qabul qilingan huquqiy asoslar va amalga oshirilgan chora-tadbirlar orqali Qashqadaryoda ayrim

ijobiy natijalar va rivojlanish tendensiyalari kuzatildi. Yoshlar siyosatining amalga oshirilishi natijasida Qashqadaryo viloyatida erishilgan asosiy yutuqlar va yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilamiz.

Yoshlarning ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar viloyatda yoshlar uchun ilg'or ta'lim imkoniyatlarini yaratdi. Ta'lim sifatining yaxshilanishi, yoshlar orasida kasb tanlashda ko'proq erkinlik va imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy himoya darajasi sezilarli ravishda oshdi. Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish, ularga kasb tayyorlash, bandlikni ta'minlash uchun amalga oshirilgan ko'plab dasturlar yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirdi. Yoshlarni ma'naviy va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari samarali bo'ldi. Yoshlar o'rtasida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning mustahkamlanishi, vatanparvarlik ruhining kuchayishi, sport va san'at sohalarida yoshlarning faol ishtiroki ko'rsatkichlarini yaxshiladi. Sport musobaqalarida yoshlarimizning muvaffaqiyatlari oshdi va ular dunyo miqyosida yuksak natijalar ko'rsatdi.

O'zbekistonning janubi, Qashqadaryo viloyati yoshlar siyosatini amalga oshirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu viloyat, o'zining geografik joylashuvi va iqtisodiy holatiga ko'ra, ko'plab yoshlar uchun ta'lim, bandlik va ijtimoiy himoya sohalarida muammolarni hal qilishda alohida yondashuvni talab qiladi. Qashqadaryo viloyatidagi yoshlar siyosatining samaradorligini baholashda, mamlakatdagi umumiy yoshlar siyosati asosida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish zarur.

Viloyatning chekka hududlarida yashovchi yoshlar uchun o'z iqtidorlarini namoyon etish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish juda muhimdir. Ayni paytda, Qashqadaryoda yoshlarning o'qish va ish bilan band bo'lish darajasi umumiy respublikadagi o'rta statistikaga qaraganda pastroqdir. Bu asosan, chekka hududlarda texnologik infrastrukturani rivojlantirish, innovatsion bizneslar ochish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalarida ayrim to'siqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra yurtimizda aholining qariyb 60 foizidan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Mana shunday sharoitda ularga munosib mehnat bozorini yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi. Davlatimizda uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi o'laroq yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining har tomonlama rivojlantirilishi orqali yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinlarini topib ketishlari ta'minlanmoqda. Bir so'z bilan aytganda yurtimiz yosh tadbirkorlar yurtiga aylanmoqda.

Buning natijasi yoshlar tadbirkorligiga berilayotgan e'tibor hamda huquqiy jihatdan yaratilgan kafolatlarda namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "Yoshlar-Kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi [8], 2021-yil 20-apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" [9] gi Prezident Farmonlari, 2018-yil 7-iyundagi "Har bir oila — tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi qarorlari tadbirkorlik subyektlariga yillik 8 foiz stavkada 3-6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ajratilishi belgilangan. Bunda 2020-yil 1-yanvardan boshlab kreditlar AT Xalq banki, "Mikrokreditbank" ATB va "Agrobank" ATB orqali O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasida ajratish imkoniyatlari yaratildi.

Birgina “Yoshlar-Kelajagimiz” Davlat dasturi doirasida 10 mingga yaqin yoshlarning biznes loyihalariga imtiyozli kredit mablagʻlari ajratilib 50 mingga yaqin yangi ish oʻrinlari ajratilgan boʻlsa, qishloq joylarida esa “Har bir yoshga – bir gektar” loyihasining amalga oshirilishi orqali yosh dehqonlar faoliyati kengaytirilmoqda.

Bu ishlar amalga oshirilishi natijasida tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan imkoniyatlar yildan yilga mazmunan boyib borayotganligini guvohi boʻlmoqdamiz. Xususan, 2022-yil 20-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi [10]da 2023-yildan boshlab tuman va shaharlar mavjud sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 5 ta toifaga ajratilishi, tadbirkorlar uchun subsidiya, kreditlar hamda kompensatsiyalar toifalardan kelib chiqib ajratilishi, ular uchun soliq stavkalari har xil boʻlishi taʼkidlangan.

Bunday amaliyotning joriy etilishi tadbirkorlik subyektlariga yanada keng qulaylik yaratilishiga hamda hududlarning rivojlanishiga muhim turtki vazifasini bajaradi. 2021-yil 21-apreldagi “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” [11] qarori qabul qilinishi esa tom maʼnoda yosh tadbirkorlar istiqbolining ishonchli kafolati boʻldi. Bunday eʼtiborli loyiha natijasida yosh tadbirkorlarni bir hududda, bir jamoa boʻlib oʻzaro hamkorlikda oʻz tadbirkorligini amalga oshirishlarining imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish binolari qurilib, yoshlarga imtiyozli shartlarda ijara va lizing asosida berilishi ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlanayotganligini isboti boʻlmoqda. Bugungi kunga kelib respublikamiz hududlarida bunday yoshlar sanoat zonalari oʻz faoliyatini yoʻlga qoʻyib, oʻz faoliyatlarini natijalari ham koʻrinib bormoqda. Qashqadaryo va boshqa hududlarda bunday zonalarda yoshlar samarali faoliyat yuritmoqdalar.

Shuningdek, viloyatda yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning oʻziga xos xususiyatlari ham mavjud. Aytaylik, yoshlarni yot gʻoyalari va zararli illatlardan himoya qilish, yoshlarning huquqbuzarliklardan oldingi choralarni kuchaytirish masalalari ham dolzarbdir. Ushbu maqsadga erishish uchun, yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar va davlat organlarining hamkorligi zarurdir.

Yoshlarni har tomonlama rivojlantirish uchun viloyatdagi oʻquvchilar va talabalar uchun eng zamonaviy taʼlim dasturlari, kasb-hunar oʻrgatish kurslari, shuningdek, yoshlar uchun ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish boʻyicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida, Qashqadaryo viloyatidagi yoshlar jamiyatdagi faolligini oshiradi va oʻzgaruvchan dunyoda oʻz oʻrnini topa olishlari uchun zarur koʻnikmalarni egallaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryoda 2020 –yil 13-noyabrda yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish, bandligini taʼminlash, boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalarida ochiq muloqot qildi. Suhbat chogʻida viloyat boʻylab 26 mingdan ortiq yoshlar ishsiz ekani va tadbirkorlik rivoji darajasi ancha pastligi qayd etildi.

**“ -Men sizlarning koʻzlaringizga qarab, ochiq muloqot qilgani keldim. Hamma yoshlar bilan koʻrishishni xohlardim, lekin, afsuski, buning iloji yoʻq. Siz ularning vakillari oʻrnida joylardagi muammolarni, yoshlar istaklarini aytishingizni istardim. Shuning uchun qoʻrqmasdan, oʻz ota-onalaringga nima deyishni xohlasalaring, hamma fikrlaringni bemalol aytinglar”, — dedi davlat rahbari**

Davlat rahbari muboraklik yoshlarning taklifini qanoatlantirib, tumanda IT-park tashkil etish, elektron tijorat va dasturlash ko'nikmalarini bepul o'rgatish yo'lga qo'yildi.

Serbiyada o'tgan sambo bo'yicha jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritgan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti talabasi Musharraf Ibodullayeva davlat granti asosida o'qishga o'tkazildi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatidagi yoshlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar umumiy yoshlar siyosatining samarasini ko'rsatmoqda. Viloyatda yoshlarga oid davlat siyosatining rivojlanishi, ayniqsa, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Yoshlar siyosatining asosiy maqsadi – yosh avlodning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularni ta'lim, ijtimoiy himoya, bandlik va ma'naviy tarbiya sohalari muvaffaqiyatli qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu siyosatning samaradorligi, yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali mamlakatning kelajagini shakllantirishda muhim o'rin tutmoqda.

Shu bilan birga, tahlil etilgan ma'lumotlar yoshlar siyosatini takomillashtirish zaruratini ham ko'rsatadi. Yoshlar ta'limi va kasbga yo'naltirish sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar hali ham cheklangan bo'lishi mumkin, chunki barcha hududlardagi yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayni paytda, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, ular uchun bandlik va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ularning ma'naviy salohiyatini oshirish borasida yanada aniq va tizimli yondashuvlar talab etiladi.

Agar yoshlar siyosatida davom etadigan islohotlar va yangi dasturlar samarali amalga oshirilsa, ular O'zbekiston yoshlarining har tomonlama barkamol, intellektual va ma'naviy jihatdan rivojlangan avlodga aylanishiga zamin yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning barqaror rivojlanishi va mamlakatning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim asos bo'ladi.

**Xulosa.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlari forumida ta'kidlab o'tganidek, "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azm-u shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar" [12]. O'zbekiston yoshlar siyosati o'zining izchil va barqaror rivojlanish yo'lini davom ettirishi kerak. Buning uchun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha yoshlar bilan bog'liq islohotlar va dasturlarni yanada kengaytirish, ularni zamon talablariga moslashtirish, barcha yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratish zarur. Shu sababli, yoshlar siyosatining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun nafaqat huquqiy asoslar, balki amaliy, innovatsion va ilg'or yondashuvlar ham zarur. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularning hayotdagi o'rnini va rolini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, davlat siyosatining kelajakda yanada muvaffaqiyatli va barqaror bo'lishiga yordam beradi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

2. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida, Toshkent sh.,1991-yil 20-noyabr, 429-XII-son
3. 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun / <https://lex.uz/docs/3026246>
4. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh.2020-yil 23-sentabr, **O'RQ-637-son ta'lim to'g'risidagi qonuni**
5. 29.08.1997 yildagi 463-I-son Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston yoshlari forumidagi ma'ruzasi // <https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi-197662>
7. Juraev S.A. Osobennosti formirovaniya gosudarstvennoy molodejnoj politiki Respubliki Uzbekistan v perexodniy period: teoriya i praktika. A-r.diss...dok.politol.n..-T., 1994. -S.17.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.06.2018 yildagi PF-5466-son "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-3826820>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.04.2021 yildagi PF-6208-son Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5382151>
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 27.12.2022 yildagi SQ-669-IV-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan ustuvor yo'nalishlar to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-6371092>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.04.2021 yildagi PQ-5088-son Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5383002>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.04.2022 yildagi 201-son. 2022 — 2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5971265>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).